



AMIR TEMURNING KITOBXONLIK ODOBI XUSUSIDA

Shukurova Barno Ergash qizi

Filologiya fakulteti Arab tili yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk sohibqiron bobomiz Amir Temur davrida ham kutubxona ishi va uni rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilganligi, kutubxona maskanlari ziyo va ma'naviyat o'chog'i sifatida faoliyat ko'rsatib, o'z davrining noyob va nodir qo'lyozma asarlarni mukammal saqlanishiga katta e'tibor qaratilganligi haqida ma'lumot beriladi. Amir Temur hukmronlik qilgan yillarda qo'lyozma manbalarni saqlash va kutubxonalar tashkil etish borasida qilingan ishlar, Amir Temur o'zi ilmfan homiysi, sahovatpesha hukmdor bo'lganligi, adabiyot va san'atni yaxshi ko'rib, davlat ishlari bilan birgalikda kutubxonachilik ishiga ham o'zining munosib hissasini qo'shganini guvohi bo'lamiz. Kalit so'zlar: sahovatpesha hukmdor, tarix, nodir va noyob qo'lyozmalar, mutoola, mashxur xattotlar, milliy qadriyat, ajdodlar, meros, madrasa, saltanat kutubxonalari.

Kalit so'zlar: Kitobsevar shaxslar, Sahovatpesha hukmdor, Kitobatchilik, Sohibqiron shoh asarlari, kutubxonalar.

Tarixda o'tgan buyuk shaxslar haqida biron so'z aytish, kattami kichikmi ilmiy yoki adabiy asar yozish o'ta mushkul. Ayniqsa, Iskandar Zulqarnayn, Yuliy sezar, Chingizxon va Amir Temurga o'xshash harbiy va siyosiy arboblarning haqida. Negaki, ularning hayoti, bosib o'tgan yo'li, faoliyati murakkab va o'ta ziddiyatlidir. Shuning uchun ham tarixda o'tgan yirik shaxslarning hayoti va faoliyatiga baho berganda ularning har bir ishini aql tarozusiga solib qaramoq, o'sha davr va zamon sharoitidan kelib chiqib baholamoq va albatta, o'zlaridan avval o'tgan hukmdorlarga nisbatan qilgan ulug' ishlariga qarab hukm chiqarmoq joiz. Ming afsuski, biz buyuk siymolarni o'zimiz yashagan yangi davrning



qonunlariga ko‘ra nazardan o‘tkazamiz. Yaqin-yaqinlargacha shunday holat hukm surdi. Ayniqsa, Amir Temurga nisbatan...¹

Agar biz tarixni ulkan bir daraxt deb tasavvur qilsak, o‘sha tarixga dahldor har qanday asar unga mazmun beruvchi ildizga o‘xshaydi. O‘sha ildizlar qanchalik mukammal manbalarga tayanib ixtiro qilingan bo‘lsa, o‘sha daraxt millatning cho‘ng ma’naviy boyligi sifatida o‘zining bor bo‘y-basti bilan dunyo ma’rifatparvarlik ayvonida mahobatli qo‘r to‘kib turadi. Biz fikrimizni asosli va mazmunli ifodalash umidida o‘zbek xalqining buyuk manbashunos olimi akademik Bo‘riboy Ahmedovning “Amir Temur” asarida keltirilgan misollarga tayangan holda sohibqiron bobomiz Amir Temurning kitobatchilik san’atiga oid fazilatlari xususida fikr yuritishga jazm etdik. Maqsadimiz Amir Temur shaxsini o‘rganish barobarida olimning mashaqqatli, ammo sharaflil tadqiqotlarini baholi qudrat davom ettirishdir.

Mustaqillik sharofati bilan Amir Temur merosi xalqqa taqdim etildi. Uning davlat arbobi sifatida olib borgan ishlari yuzasidan ko‘plab ilmiy va badiiy asarlar yuzaga keldi. Tarixdan bizga ma’lumki, Amir Temur o‘z davrida ham kutubxona maskanlari ziyo va ma’naviyat o‘chog‘i sifatida faoliyat ko‘rsatgan. O‘z davrining noyob va nodir qo‘lyozma asarlarni mukammal saqlanishiga sohibqiron Amir Temur alohida e’tibor qaratgan. Bu esa keyingi davrlar uchun ham ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lgan noyob va nodir tarixiy qo‘lyozma asarlar fondlarining shakllanishi, ilm-fanning turli yo‘nalishlariga oid asarlarning mavjud bo‘lganligi yangi kutubxonalarning tashkil etilishiga asosiy omil sifatida turtki bo‘ldi. Chunki kitob insoniyat dahosi yaratgan eng buyuk kashfiyotlardan biridir. U qadim zamonlardan buyon ijtimoiy hayotda juda muhim o‘rin egallab kelgan. Agar kitob bo‘lmasa, biz ajdodlarimizning turmush tarzi, hayoti, madaniyati, tili kabilar haqida ma’lumot ololmas edik. Kitob - buyuk kuch, asrlar sadosini avlodlarga yetkazuvchi manba, inson hayotini charog‘on etuvchi nur, insoniyatga ma’naviyat-ma’rifat ziyosini asrlar davomida sochuvchi quyosh; ijtimoiy-siyosiy, ilmiy estetik qarashlarni shakllantirish

¹ Ahmedov B. Amir Temur. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1995, - B. 4.



vositasi; bilimlar targ'iboti va tarbiya quroli. Kitobning ta'rifi haqida tinmay yozish mumkin².

Haqiqatdan ham kitob bizni uzoq tarix bilan uchrashtiradi. Kelajak hayotimiz uchun yangi-yangi innovatsion kashfiyotlar yaratishga turtki bo'ladi. Biz Amir Temur davlati va shaxsan Temur shaxsi haqida fikr yuritar ekanmiz, uning kitob mutolaasiga naqadar e'tiborli shaxs bo'lganligini akademik Bo'riboy Ahmedovning "Amir Temur" asarida keltirilgan quyidagi matn orqali guvoh bo'lamiz: " Amir Temur poytaxtda qariyb uch oy istiqomat qildi. Kuz oyoqlab, qishning isi ham kelib qoldi. Shu payt u Bog'u behishtda, tashqi devorlari Tabrizdan keltirilgan oq marmar bilan qoplangan saroyda turardi. Tuman og'o uchun 1378 yili bunyod etilgan bu ajoyib chorbog' Samarqandning kunbotar tarafida joylashgan edi. Hazrat sohibqiron bir kuni kechkurun kutubxona dorug'asi mavlono Orifni chaqirtirib qoldi. Kitobdor sohibqiron bekorga yo'qlatmasligini yaxshi bilardi. Bironta kitob kerak bo'lib qolgandirki, yo'qlatgan. Va yana uning ko'proq tarix kitoblarga qiziqishini yaxshi bilardi. Shunnng uchun ham ehtiyotdan tarix kitoblardan bittaikkitasini: «Tarixi Tabariy tarjimasi», «Tabakogi Nosiriy», «Majmu' alansob» va Rashiddinning «Jomi' ut-tavorix»ni o'zi bilan birga olib keldi va hazrat sohibqironning oldiga, xon ustiga qo'ydi. Temurbek kitoblarning u yer, bu yeridan varaqlab ko'rib, hammasini chetga surib qo'ydi. Kitobdor bir qadar tashvish chekdi, «a'lohazratning ko'nglidagini topib kelmadim, chamasi», deb. Bir fursat o'tib hazrat sohibqiron «Men bu kitoblarni bilamen», deb qoldilar. Kitobdor dast o'rnidan turdi va ta'zim qilib xonadan chiqdi. Ancha vaqtdan keyin u katta bir kitobni qo'ltiqlaganicha halloslab yana xonaga kirib keldi va ta'zim qilib kitobni hazrat sohibqironning oldiga qo'ydi. Amir Temur kitobni boshdan varaqlay ketdi va nihoyat, to'rtinchi sahifasidan uning nomini topdi. — Ha, men izlag'on kitob shu, mavlono, «Tarixi jahonkushoy». Sohibqironi a'zam, Chingizxoni muazzamning tarixi. Ta'lif qilg'on kishi Alouddin Otamaliki Juvayniy erkan. Mana bu o'rinda yozilibdur, - Amir Temur kitobning

² Yoldoshev I.J. O'zbek kitobatchilik terminologiyasi. — "Fan", 2004. — B. 3.



o'sha varag'ini ko'rsatdi. So'ng yana kitobdorga murojaat qildi: — Asli eronlik bo'lsa kerak. Ammo naslu nasabidin xabarim yo'q. Buni kitobdor tafsilotlari bilan aytib berdi: — Shunday, a'lohazrat. Xorazmshoh Alouddin Muhammadning Xurosondagi noibi Bahouddin Muhammadning kenja o'g'lidur ul. Bir vaqtlar Elxon Abaqaxonning Iroq va Xuzistondag'i noibi ham bo'lg'on. Shu yerga kelganda «yana ortiqcha gaplar aytayotgan bo'lmay» degan mulohaza bilan hazrat sohibqironga asta nazar tashlab qo'ydi. Hikoyasini diqqat bilan tinglab o'ltirganidan ishonch hosil qilib, so'zida davom etdi. Lekin Temurbekni ko'proq podshoh va hukmdorlarning el-yurt obodonlig'i yo'lida qilgan yumushlari qiziqtirishini bilgani uchun Juvayniylarning xayr-ehsoni haqida ko'proq so'zladi. — Mana shu muarrix Juvayniy, a'lohazrat, ko'p obodonliklar ham qilg'on. Masalan, o'z kissasidin o'n ming dinor sarflab, Frot daryosidin Najif ila Kufag'a nahr chiqorib, o'tmishda qaqrab yotg'on ul viloyatlardog'i ko'p yerlarni serob qilg'on. Shu yerda Amir Temur og'ir tin oldi, so'ng kitobdorga ma'yus bir tarzda arz-hol qildi: — Qani endi, mavlono, Juvayniydek hokimlar va noiblar ko'proq bo'lsa. Afsuski, undog' ermas. Alarning ko'pchiligi faqat hamyonini qappaytirish payida bo'ladurlar. Hokimlik kursisida mahkamroq o'rnashib olg'uncha tirishib-tirmashib mehnat qiladurlar, lokin keyin... - Temurbek buyog'ini aytmadi. Faqat bosh chayqadi, so'ng qo'shib qo'ydi:

— Lokin alarning orasida yaxshilari, halol-poklari ham ko'p³. Demak, Amir Temur shaxsining buyuklikka undagan omil ham kitob bo'lgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Amir Temur hukumronlik qilgan yillarda (1370-1405) qo'lyozma manbalarni saqlash va kutubxonalar tashkil etish borasida katta g'amxo'rlik qilindi. Amir Temur ilm-fan homiysi, sahovatpesha hukmdor bo'lganligi bois ham u adabiyot va san'atni yaxshi ko'rgan. Manbalarda qayd etilishicha, uning hukmronlik qilgan davrining birinchi yarmida zabt qilingan hududlarda to'plangan kitoblar va qo'lyozmalarni o'zining ona yurti Shahrisabzga yuborilgan. Ushbu keltirilgan qo'lyozma manbalar jamlanmasi natijasida saroyda maxsus

³ Ahmedov B. Amir Temur. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1995, - B. 320.



qo'lyozmalar kutubxonasi tashkil etilgan. Ayniqsa, mamlakat poytaxti bo'lgan Samarqanddagi saroy kutubxonasi mashhur bo'lib, bu yerda yunon, lotin, arab, arman, fors va boshqa tillarga oid noyob va nodir hisoblangan qo'lyozma asarlar saqlanardi.

Turkiyaning Burna shahridagi mashhur kutubxonadan Samarqandga ko'pgina qimmatli hisoblangan nodir qo'lyozma asarlar keltirilgan. Bursa kutubxonasi antik davrdagi mashhur kutubxonalardan biri - Pergam kutubxonasining merosxo'ri edi. Ushbu kutubxonada Arximedning zamondoshi hisoblangan matematik Apolloniy hamda o'z davrining mashhur faylasuflaridan Antigon Karistskiy, Kichik Nenaf va boshqa ko'pgina olimlar faoliyat ko'rsatgan. Bursa kutubxonasida saqlanayotgan qadimgi yunon mutafakkirlaridan Ptolemey, Gipparx, Diafant va boshqa iskandariyalik mualliflarning asarlari Pergam kutubxonasidan keltirilgan asarlarning Amir Temurning saroy kutubxonasidan joy olganligi sohibqironni kitobga va noyob qo'lyozma durdonalariga bo'lgan qiziqishidan dalolat beradi.

Manbalarda keltirilishicha, Amir Temur kitobga, kitob to'plashga va uni tartib bilan saqlashga buyuk san'at darajasida munosabatda bo'lgan. Uning bu fazilatidan u yerda xizmatda yurgan kitobdorlar ham sohibqiron oldilarida o'z ishlaridan ko'ngli to'lmay hijolatda turar edilar. Chunki Amir Temur kutubxonada qancha kitob borligi, qanday ma'lumotlarni qaysi kitobdan olish mumkinligini va qaysi masalaga oid fikrlar aynan qaysi kitobdan joy olganligini aniq va tiniq tahlillar asosida isbotlashga qodir inson edilar. O'z navbatida o'z qo'l ostidagi barcha xodimlardan ham shunday ziyraklikni talab qilar, kezi kelganda ularga bunga qanday yondashuvlar asosida erishish mumkinligini erinmasdan o'rgatar edi. Bu esa uning vazirlar va kitobdorlar bilan bo'lib o'tadigan suhbatlar orasida keltirib o'tar edilar. Amir Temur kutubxonani davlat ahamiyatga molik masala darajasida tushungan va uni takomillashtirish uchun bor kuchni unga qaratgan. Hazrat sohibqiron vazirlar, amirlar, hokimlar xususida, ularning sifatleri va vazifalari haqida yana ko'p gaplarni aytdi. Xiyol o'tib kitobdordan uzr so'radi: — Esim kursin, mavlono, ezmalik qilib sizni horitib qo'ydim, chamasi. Bu gaplarni shu yerda to'xtatib, dunyoning ajoyibotlaridin



ham so‘zlashsak Mavlono Orif hazrat sohibqironning ko‘nglidagini topganday bo‘ldi. U kitoblarni varaqlaganda, xiyol bosh chayqab qo‘ygan edi. Demak, uni Ko‘ksaroydagi kutubxonaning umumiy ahvoli qiziqtiradi. Kitoblar biroz nam tepchib qolgan. Demak, Ko‘ksaroyda kutubxona uchun ajratilgan xonalar zaxlik qilib qolgan. Kitobdor buni anchadan beri aytmoqchi bo‘lib yurgan, lekin fursati bo‘lmagan edi. Ko‘nglidagini bugun aytdi: — Xonalar zaxlik qilib qoldi, a’lohzrat. Umuman, kitob uchun devorlari marmar birlan qoplong‘on xonalar to‘g‘ri kelmas erkan, nazarimda. Archa daraxtidin yasalg‘on sanduqlar ham yetishmaydur. Hazrat sohibqiron shu tobdayoq vaziri a’zamni chaqirtirib, kutubxona va kitoblar xususida unga qator topshiriqlar berdi. U chiqib ketgach, kitobdorga murojaat etdi: — Siz, mavlono, kutubxona xususida ne fikr bo‘lsa, tortinmay kelib ayting. Kitob, taqsim, bebaho xazina. Yer qimirlab qasrlar qulab tushishi, azim shaharlar bir zumda yo‘q bo‘lib ketishi mumkin, nahrlar izdin chiqib kurib qolish hollari ham bo‘lg‘on, xazinani qaroqchi olib ketib, davlat bir fulussiz qolishi ham mumkin. Alarni vaqti bilan tiklab olsa bo‘lur. Ammo kitob yo‘q bo‘lib ketsa, uni hech qachon tiklab bo‘lmaydur. Biz kutubxona xususida yana bafurja o‘ylab ko‘rurmiz.

Shu bilan kitobdor bilan bo‘lgan suhbat oxirladi. Mavlono Orif fотиha o‘qib o‘rnidan turdi va hazrat sohibqiron bilan xayrlashib uning huzuridan chiqdi⁴. Amir Temurning kitob saqlash qoidasi va u joyning ozodaligi borasidagi bunday qarashlari har qanday insonni kitob saqlash madaniyatiga qiziqishini uyg‘otadi, albatta. Amir Temur va Temuriyzodalar davrida turli sohalarda qanchadan-qancha yutuqlar qo‘lga kiritilgan bo‘lsa, insonning ilmiy va badiiy tafakkuri natijasi bo‘lmish kitoblarni yaratish, ularni ko‘chirish, saqlash sohasida ham katta ishlar amalga oshirilgan. Bu davrda xat va kitob ko‘chirish, uni bezaklar bilan ziynatlash bilan bog‘liq bo‘lgan mashxur siymolar, xattotlar yetishib chiqdilar. Ulardan, Mir Ali Tabriziy, Sulton Ali Mashhadiy, Mir Ali Xiraviy, Mir Imod, Sulton Muhammad Handon, Mavlono Ma’ruf, Abdujamil kotib, Darvesh Muhammad Samarqandiy, Pir

⁴ Ahmedov B. Amir Temur. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1995, - B. 323.



Muhammad So‘fi Buxoriy va boshqalarning nomlarini xurmat bilan tilga olinadi. Xattotlar tomonidan nastaliq xatida fikrlarning go‘zal tarzda bayon qilinishi mutolaani nihoyatda osonlashtirishga yordam bergan. Kitoblarni muqovalash, oltin suvi va rasmlar (miniatyuralar) bilan bezashning nodir san‘atkorlari - Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhiblar ham ana shu davrda yashab ijod qilgan siymolardandir. O‘z sohasining yetuk mutaxassisi va malakali xattot va rassomlar tomonidan tayyorlangan qo‘lyozmalar moliyaviy jihatdan iqtidorli shaxslar buyurtmasi bilan amalga oshirilardi yoki podshohlar kutubxonasi qoshida bajarilar edi. Bunday kitoblar har jihatdan noyob va nodir qimmatbaho hisoblanardi. Mohir xattotlar tomonidan ko‘chirilgan kitoblarning nusxalari juda kam bo‘lgan, xattoki, bir nusxadan bo‘lganligi uchun muallifning o‘z qo‘lyozmasi tarzida saqlangan.

Demak, kitobning ahamiyatini yaxshi anglagan ajdodlarimiz kitob yaratish ishiga - kitobatchilikka alohida e‘tibor bilan qarashgan. XV-XVI asrlarda O‘rta Osiyoda kitobatchilik hunarmandchilikning bir sohasi sifatida takomil topdi. Bu soha nafis san‘atning yuksak darajasi sifatida tanildi. Bunda ulug‘ sohibqiron bobomiz Amir Temur va uning avlodlari, qolaversa, so‘z mulking sultoni, buyuk mutafakkir, ilm va fan ahlining homiysi Mir Alisher Navoiy hazratlarining xizmatlari beqiyosdir. Ma‘lumki, temuriylar davrida kitob yozish va uni bezash san‘ati har qachongidan ham katta rag‘bat ko‘rdi. Shuning uchun ham butun dunyoni necha asrlar davomida lol qoldirib kelayotgan Sharq kitobatchiligining eng nozik va qimmatli durdonalari ana shu davrlarda yaratildi. Temur va Ulug‘bek davrida xattot, muzahhib, naqqosh, musavvir hamda sahhoflarning yuksak mahorati bezakli qo‘lyozmalarning shu qadar go‘zal namunalari yaratildiki, ular hanuzga qadar jumlai jahonni lol qoldirib keladi⁵.

Saltanat kutubxonalari va mashhur siymolar kutubxonalari alohida manzilda, ularni saqlovchi, yangisini ko‘chiradigan, zarar yetkazilgan (baraqlari yo‘qolgan yoki satrlari

⁵ Yoldoshev I.J. O‘zbek kitobatchilik terminologiyasi. – “Fan”, 2004. – B. 3.



o‘chgan) kitoblarni ta‘mirlovchi maxsus mutaxassislar bilan ta‘minlanganlar. Xatto kitoblar o‘ziga xos tartib bilan saqlangan. Uning boshqaruvchisi kitobdor deb atalgan. Mashhur madrasalarda ham kutubxona uchun alohida hujralar ajratilgan va uning mas‘ul hodimlari ham bo‘lgan. Va nihoyat, Amir Temurning vatani, xalqi va tarix oldida qilgan yana bir katta xizmati borki, uni aytmay bo‘lmaydi. U Vatani va xalqini butun dunyo oldida ulug‘ladi! Turkiston zaminini Ispaniya, Italiya, Fransiya, Angliya, Rusiya, Xitoy kabi davlatlar tanidilar va tan oldilar. Biz buni o‘sha mamlakat podshohlari bilan hazrat sohibqiron o‘rtasidagi yozishmalardan va o‘sha zamonlardan qolgan tarixiy kitoblardan yaxshi bilamiz. O‘sha maktublardan bir qismi bizning zamonamizgacha yetib kelgan va hozir Londondagi mashhur Britaniya muzeyida, Parijning milliy kutubxonasida, Italiyada saqlanmoqda. Ba‘zi maktublarning nusxalari, ko‘p hollarda ularning qisqacha mazmuni Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy va ibn Arabshohning kitoblarida keltirilgan. Hazrat sohibqironning Venesiya va Genuya dojlari bilan yozishmalari hakida esa Italiyalik tarixchi Marino Sanudoning (XVXVI a.) «Venesiya dojlarining hayoti» degan kitobida qimmatli ma‘lumotlar saqlanib qolgan. Amir Temurning Fransiya podshohlari bilan olib borgan yozishmalari haqida XIX asrda o‘tgan mashhur fransuz sharqshunosi Silvestr de Sasi, ingliz olimi Ye. Bretshneyder, eronlik Mirza Muhammadxon Qazvinii va boshqa olimlarning asarlarida qimmatli ma‘lumotlarni uchratamiz. Amir Temur davlatining tashqi siyosati haqida o‘ta muhim ma‘lumotlar uchratamiz. Amir Temur davlatining tashqi siyosati haqida o‘ta muhim ma‘lumotlar 1404 yili uning saroyida qariyb uch oy turib ketgan Kastiliya qiroli Genrix III ning elchisi Rui Gonsales de Klavixoning esdaliklarida mavjud. Amir Temur davlatining tashqi siyosati va jahonda tutgan mavqeini bu maktublarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi, albatta. Ularni maxsus o‘rganmoq zarur. Menimcha bunga vaqt yetdi...⁶

⁶ Ahmedov B. Amir Temur. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1995, - B. 582.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish - xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. (Prezident Mirziyoev Shavkat Miromonovichning O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzalari). - "Xalq so'zi" gazetasi, 2017 yil, 4 avgust.
2. Temur Tuzuklari. - Toshkent, Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996-yil. - B. 344.
3. Axmedov B. Tarixdan saboqlar. - Toshkent, "O'qituvchi" 1994. – B. 430.
4. Axmedov B. Amir Temur. - Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1995. – B. 640.
5. Yo'ldoshev I.J. O'zbek kitobatchilik terminologiyasi. - "Fan", 2004. – B. 214.
6. Yuldasheva, S. (2021). The Emergence of Libraries as a Hotbed of Spirituality and Enlightenment. International Journal of Culture and Modernity, 10, - PP. 43-51.
7. Sohibaxon, Y. (2021). O'ZBEKISTONDA KUTUBXONACHILIK SOHASINING RIVOJI. Oriental Art and Culture, (7), 260-268.
10. Yuldasheva, S., Habibjonov, I., & Haydarov, A. (2020). Librarianship in the formation of book reading. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(2), 2925-2927.
8. Yuldasheva, S. (2019). Kitob mutolaasini shakillantirishda kutubxonachilik faoliyati. Oriental Art and Culture, (IV (1)), 59-62.
9. Ismoilova, N., & Habibjonov, I. (2021). Kitob va kitobxonlik–inson manaviyatining kozgusi. Oriental art and culture, 2(1), 159-166.